



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOAN'ANAVIY METODLARNING ROLI

Tosheva Maftuna O'tkirovna

Buxoro davlat universiteti

pedagogika instituti pedagogika va

psixologiya mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6970852>

ARTICLE INFO

Received: 01st August 2022

Accepted: 03rd August 2022

Online: 05th August 2022

KEY WORDS

Kompetentlik yondashuvi, metodik kompetentlik, noan'anaviy metodlar, an'anaviy metodlar, ongli mas'uliyat, amaliy konikma, shaxsiy fikrning shakllanishi, talimda hamkorlik tushunchasi

ABSTRACT

Ushbu maqolada kompetentlik yondashuvining ta'lim tizimiga kirib kelish tarixi, hozirgi kundagi o'rni, ahamiyati, fan-texnika rivojlanib borishi natijasida pedagoglarda kompetentlik qobiliyatini rivojlantirishning dolzarbligi keltirildi. Bo'lajak o'qituvchilarda, ayniqsa, metodik kompetentlikni rivojlantirish muhimligi va bu jarayonda noan'anaviy metodlarning ahamiyati kattaligi, ya'ni noan'anaviy o'qitish orqali talabalarni majburiy itoatkorlikdan ongli mas'uliyatlilikka yo'naltirish dolzarbligi maqola mazmunida yoritib berildi

O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligining 2018 yil 11 yanvardagi 03-03/48-sonli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 27 martdagi xatlari hamda hududiy markazining 2018 yilning ish rejasiga muvofiq "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"ga bag'ishlangan "Xalq ta'limi tizimida pedagog xodimlar kompetentsiyasini takomillashtirish: muammolar va ularning echimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanining o'tkazilishidan maqsad ta'lim tizimida pedagog xodimlar kompetentsiyasini takomillashtirish bo'yicha erishilgan yutuqlarni keng jamoatchilikka etkazish, mavjud muammolar yuzasidan ma'lumotlar to'plash va uni atroflicha tahlil qilish

hamda olingan ilmiy-tadqiqot natijalarini muhokama qilishdan iboratdir.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan edi.

"Kompetentlik" atamasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Bu tushuncha noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar



zarurligini ko'rsatadi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonlarida mavjud bo'lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan.

S.E. Shishov "kompetentlik"ni bilim, tajriba, qadriyatlar, mashg'ulotlar orqali egallanadigan moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat deb ta'riflaydi. Uning fikricha, kompetensiya nafaqat bilim, na ko'nikma, na ko'nikma bilan chegaralanib qolmaydi, u bilim va vaziyat o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyati sifatida Talabalar "kompetentsiyasi" ostida S.Ye. Shishov va I.G. Agapov "shaxsning o'qitish orqali olingan bilim va tajribaga asoslangan, shaxsning ta'lim va kognitiv jarayondagi mustaqil ishtirokiga yo'naltirilgan, shuningdek, uni mehnatga muvaffaqiyatli jalb qilishga qaratilgan umumiy qobiliyati va mehnatga tayyorligini" tushunadi. M.A. Choshanov, asosan, kompetensiya (bilim)ning mazmun komponenti va protsessual komponenti (mahorat)ga ishora qiladi. V.S. Bezrukova kompetentsiyani "kasbiy jihatdan malakali mulohazalar, baholashlar, fikrlarni ifoda etish imkonini beradigan bilim va

ko'nikmalarni egallash" deb tushunadi. Ta'lim jarayonining bir qismi sifatida V.V. Kraevskiy va A.V. Xutorskaya ta'lim kompetensiyasi deganda bilim, ko'nikma va harakat usullari tushuniladi, qaraladi. "Ijtimoiy psixologlar, xususan, D. Bruner kompetentsiyani eng malakali mutaxassisga xos bo'lgan, kasbni o'zlashtirgan har bir shaxs erishishi kerak bo'lgan sifatlar yig'indisi deb hisoblaydi"¹. V.A. Kalney kompetentsiyani ma'lum bir vaziyatda olingan bilim va tajribani safarbar qilish qobiliyati deb hisoblaydi. Uning fikricha, kompetentsiyalar haqida faqat ular biron bir vaziyatda namoyon bo'lganda gapirish mantiqiy. Tadqiqotchi potentsiallar qatorida qoladigan namoyon bo'lmagan kompetensiya kompetensiya emas, balki eng ko'p - yashirin imkoniyat deb hisoblaydi. V.V. Nesterov va A.S. Belkin ijtimoiy ma'noda kompetensiya, eng avvalo, "inson ongi tarkibidagi bilim komponentlari to'plamini, ya'ni inson hayoti va faoliyatining eng muhim tomonlari to'g'risidagi ma'lumotlar tizimini, uning to'liq ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan ma'noni anglatadi."²

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish

¹ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГ ХОДИМЛАР КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ: МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ мавзусидаги
республика илмий-амалий конференцияси материаллари Самарқанд
шаҳри, 2018 йил 30 апрель, 145-150-бет.

²ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ Ф.Эшназарова СамДУ МОМ
Ўқитувчиси, О.Қўқорова СамМИ ўқитувчиси 183-187 бет.



qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining tutgan o'rnidan oqilona va odilona foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'zaro hurmat kabi axloqiy fazilatlarni, o'qishga ongli munosabat, o'z faoliyatini maqsadli yo'lga qo'yish kabi aqliy sifatlarni, shu bilan birga, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish,

qiyinchiliklarni yengish kabi irodaviy fazilatlarni shakllantirishi lozim. O'qituvchi darsni qanchalik ijodiy tashkil etishga urinmasin, o'quvchilarning aqliy faolligi ta'minlamasa, o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilmasa, ma'naviy barkamol insonni, shaxsni talab darajasida tarbiyalash ishida kamchiliklar saqlanib qolaveradi. Davlatimiz tomonidan pedagoglar malakasini oshirishga katta e'tibor qaratilib, oliy toifali mutaxassislar safini kengaytirishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishi, zamonaviy texnologiyalar bilan qurollanishi eng dolzarb muammolardan biridir. Zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyatida shakllanib, asosan amaliy ishlarda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib-rivojlana boradi. Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi – bir tomondan o'qituvchilar faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli takomillashib borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi, chunki bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Har qanday o'qituvchi psixologik nuqtayi nazardan doimiy ravishda o'z bilimlarini va malakalarini oshirish bilan shug'ullanishi lozim. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagoglik kasbi, ma'lumki, har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Pedagogik faoliyatda yutuqlarga faqat shu kasbga qiziqqan, shu faoliyat bilan shug'ullanishga moyil, kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan pedagoglarga erisha oladi. O'qitishning noan'anaviy texnologiyalari talabalar faolligini oshirishga, pedagog va talabalar o'rtasida



hamkorlik va qaytuvchan aloqa o'rnatilishiga, yangi zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan. Bunda noan'anaviy o'qitish orqali talabalarni majburiy itoatkorlikdan ongli mas'uliyatlikka yo'naltirish amalga oshiriladi.

Noan'anaviy ta'limda talabalar quyidagilarni o'rganadilar:

- nazariy bilimlarni amaliy qo'llash usullarini izlab topishni;
- o'quv materialini birgalikda muhokama qilishni, tashabbus ko'rsatish, shaxsiy fikrlarini shakllantirishni, ifodalash va asoslashni;
- individual farqlarga qaramasdan hamkorlik qilishni, layoqatlarini namoyon qilishni;
- bir-birining muvaffaqiyatini ko'rsatish, bir-birini qo'llabquvvatlashni;
- umumiy vazifani bajarish uchun tuzilgan kichik guruhda mahsuldor ishlash va shu kabilarni.

Markazda talaba bo'lgan o'qyuv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- talabaning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- talaba tashabbusi va mas'uliyatini qo'llabquvvatlash;
- lider-yetakchilar sonini ko'paytirish;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- o'qituvchi- talabalar uchun o'qyuv jarayonini yengillashtiruvchi shaxs;
- o'quv jarayonini baholash.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida talaba bo'lgan) o'qitish metodlarning afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga

olib kelishi.

- Bilimlarni amaliy vaziyatda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- Talabalarining o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
- Mustaqil fikrlay oladigan talabaning shakllanishiga yordam berishi.
- Tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishi.
- Muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.
- O'qituvchidan yuqori texnologik bilim va tayyorgarlik talab etilishi.

Kamchiliklari:

- Ko'p vaqt talab etilishi.
- Talabalarning doim hamkeraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.
- Murakkab mazmundagi o'quv materialini o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.
- Guruh bo'yicha umumiy baholanish sababli obyektiv baholashda noaniqliklar tug'ilishi, ya'ni guruhdagi «kuchsiz» talabalar sababli «kuchli» talabalarining past baholanishi yoki aksincha.

O'qitishning noan'anaviy modellarini shartli ravishda 3ga ajratish mumkin:

- hamkorlikda o'rganish modeli – talabalarining guruhlarda o'zaro ishlashi asosida ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod;
- modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) auditoriyada yaratish va ularda talabalarining shaxsan qatnashishi va



faoliyati asosida ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod;

-o'rganishning tadqiqot modeli – talabalarni muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

O'qitishning noan'anaviy texnologiyalari talabalar faolligini oshirishga, pedagog va talabalar o'rtasida hamkorlik va qaytuvchan aloqa o'rnatilishiga, yangi zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etishga qaratilgan. Bunda noan'anaviy o'qitish orqali talabalarni majburiy itoatkorlikdan ongli mas'uliyatlilikka yo'naltirish amalga oshiriladi³.

³ Жуманова С.Б. Креатив фикрлаш. — «Издательские решения», 2020. ISBN 978-5-00-511636-9.



An'anaviy va noan'anaviy metodlarning afzalliklari:

An'anaviy metod	Noan'anaviy metod
Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lib, aniq tushunchalar o'rganiladi	Bilimlarni amaliy vaziyatda qo'llash uchun sharoit yaratiladi
O'qitish jarayoni o'qituvchi tomonidan yuqori darajada nazorat qilinadi	O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari natijasida talabalarda motivatsiya yuqori darajada bo'ladi
Vaqtdan unumli foydalaniladi	Muloqotchanlikning takomillashishi, mustaqil fikrlay oladigan talabani shakllanishi
O'qituvchining pedagogik mahoratiga yuqori talab qo'yiladi	Talabada tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashning rivojlantirilishi
	Muammolar yechish ko'nikmasining shakllanishi

An'anaviy va noan'anaviy metodlarning kamchiliklari:

An'anaviy metod	Noan'anaviy metod
Talabalar passiv ishtirokchi bo'lib, talaba va o'qituvchi muloqoti mavjud bo'lmaydi	Ko'p vaqt talab qilinishi natijasida talabalarni kerakli nazorat qilish imkoniyatining pastligi
Individual yondashuv bo'lmaganligi, talabalarning o'zlashtirish imkoniyatlari turli xil bo'lganligi sababli guruh bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qoladi	Murakkab mazmundagi o'quv materialini o'rganilayotganda talaba rolini yuqoriligi
Tashabbuskorlik, mustaqil o'rganish, yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi	Guruh bo'yicha umumiy baholash sababli obyektiv baholashda noaniqliklar tug'ulishi

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka

tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarining oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta



oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlarning quyidagi turlari bilan tanishamiz:

“ZIG-ZAG” STRATEGIYASI (metodi)

Metodi o'quvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. O'quvchilarda jamoa (yoki guruh) bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi;
2. Mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt teжалadi.

“Zig-zag” strategiyasini qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- sinf o'quvchilari bir necha (5-7 ta) guruhga bo'linadi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 ta qismga ajratiladi;
- har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matni, 2-matni, ...) beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi;
- belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar;
- vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar;
- liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin;
- barcha guruhlar o'zlariga berilgan matnni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi;
- bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi;
- shu taxlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

“INSERT” strategiyasi

Strategiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruhlar o'zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so'raladi;
- o'quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadildir;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlariga tarqatadi;
- guruhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);
- guruh a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
- guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi;
- liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;
- guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Strategiyani qo'llashda o'quvchilar quyidagi sxemalar bo'yicha faoliyatini tashkil etadilar:

Guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhlar tomonidan aksini topgan bo'lsa



S

Matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'z
aksini topmagan bo'lsa Strategiyani o'quvchilar mantiqiy fikrlash,
shaxsiy xatolar ustida ishlash
Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'alsa
ko'nikmalarini shakllantirishga yordam
(tushunmovchiliklar yuzaga kelsa) beradi.

References:

1. "Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш омиллари"
Ф.Эшназарова СамДУ МОМ ўқитувчиси, О.Қўчқорова СамМИ ўқитувчиси, 183-187
bet
2. "Халқ таълими тизимида педагог ходимлар компетенциясини
такомиллаштириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари" мавзусидаги республика
илмий-амалий конференцияси м а т е р и а л л а р и Самарқанд шаҳри, 2018 йил
30 апрель. ISBN 978-9943-997-87-5
3. Жуманова С.Б. Креатив фикрлаш. — «Издательские решения», 2020. ISBN 978-5-
00-511636-9.